

QASHQADARYO VILOYATIDA AHOLINING UMUMIY O‘LIM KO‘RSATKICHLARI VA UNING HUDUDIY TAFOVUTLARI

Do‘sbekov Sirojiddin Komiljon o‘g‘li,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktaranti

Samarqand shahri

siroyuja1995@gmail.com

Maxmudova Gulmira Xamidovna,

Samarqand shahar Prezident maktabi geografiya fani o‘qituvchisi

otayorovagulmera@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15170616>

Annotatsiya. Binobarin, aholi salomatligi va aholi o‘lim ko‘rsatkichlari chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Aholi o‘lim ko‘rsatkichlarining viloyat tumanlari doirasida tafovutlari hududlarning tabiiy geografik hamda iqtisodiy-ijtimoiy omillarga bog‘liq ekanligi o‘ziga xos dolzarflik kasb etadi. Aholi o‘lim sabablarini batafsil o‘rganish, ma‘muriy-hududiy birliklar kesimida o‘lim jarayoniga olib keluvchi kasalliklarga ixtisoslashgan shifoxonalar quvvatini oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqishda ahamiyatli hisoblanadi. Viloyat aholisining 2010-2023-yillar intervalidagi aholi o‘lim ko‘rsatkichlari tahlil qilingan va o‘lim sabablari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Aholi o‘limi, aholi o‘limi sabablari, inson salomatligi, yurak qon tomir a‘zolari kasalliklari.

Аннотация. Таким образом, здоровье населения и показатели смертности находятся в тесной взаимосвязи. Различия в показателях смертности населения на уровне районов области обусловлены природно-географическими и социально-экономическими факторами, что делает данный вопрос особенно актуальным. Детальное изучение причин смертности населения имеет важное значение для разработки мер по увеличению мощности специализированных больниц, ориентированных на лечение заболеваний, приводящих к летальному исходу в разрезе административно-территориальных единиц. В данной работе проанализированы показатели смертности населения Кашкадарьинской области за период 2010-2023 годов и изучены причины смертности.

Ключевые слова: смертность населения, причины смертности, здоровье человека, заболевания сердечно-сосудистой системы.

Annotation. Thus, public health and mortality rates are closely interconnected. The differences in mortality rates across the districts of the region are influenced by natural-geographical and socio-economic factors, making this issue particularly relevant. A detailed study of the causes of mortality is essential for developing measures to increase the capacity of specialized hospitals focused on treating diseases leading to fatal outcomes within administrative-territorial units. This study analyzes the mortality rates of the population in the Kashkadarya region for the period 2010–2023 and examines the causes of death.

Keywords: population mortality, causes of mortality, human health, cardiovascular diseases.

Demografik holatning asosiy bir muhim ko‘rsatkichi aholi o‘lim holati hisoblanib, viloyatda umumiy kasallanish ko‘rsatkichlari va o‘limning bo‘g‘liqligini tahlil qilish orqali tabiiy o‘lim, kasallanish orqali yuzaga kelgan o‘lim holatlarini

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

aniqlash imkonini beradi. O‘lim jarayonlarini o‘rganish va tahlil qilishni tanatologiya fani o‘rganadi, ushbu so‘z yunon tilidan olingan bo‘lib, “tanatos” o‘lim, logiya esa fan degan ma‘noni anglatadi[1].

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra XVIII asrning ikkinchi yarmiga qadar yer sharining insonlar istiqomat qiladigan barcha hududlarida o‘lim holati juda yuqori ko‘rsatkichda saqlanib kelgan. Soha mutaxassislari tomonidan aholining o‘lim sabablarini ikki asosiy guruhga bo‘lingan, ular quyidagilar:

1. Endogen sabablari.
2. Ekzogen sabablar.

Har bir insonning o‘z fiziologiyasidan kelib chiqqan holda, yani irsiyat orqali avloddan-avlodga o‘tadigan kasalliklar orqali vujudga keladigan o‘lim holati endogen sabablar hisoblanadi. Ekzogen sabablar esa insonlar o‘limiga tashqi, ya’ni atrof-muhit holati, texnogen muhit holati, sotsial muhit kabilarni ta’siri hisobga vujudga kelgan o‘lim holatlari nazarda tutuladi[2].

Qashqadaryo viloyatida aholi o‘limining geografik tarkibi

Hududlar	Har ming kishi hisobida (promille)				O‘zgarishlar indeksi
	2010	2015	2020	2023	
Qashqadaryo viloyati	3,8	4,0	4,2	4,6	+1,21
Qarshi sh.	4,0	4,2	4,9	4,7	+1,17
Shahrisabz sh.			3,9	5,0	+1,28
tumanlar:					
G‘uzor	4,2	4,6	4,6	5,0	+1,19
Dehqonobod	3,9	4,1	4,0	6,7	+1,71
Qamashi	4,2	4,1	4,0	4,2	+1,0
Qarshi	3,9	4,3	5,1	5,0	+1,28
Koson	3,4	3,9	3,8	4,8	+1,41
Kitob	3,8	3,9	4,0	3,9	+1,02
Mirishkor	3,5	3,4	4,1	5,4	+1,54
Muborak	3,9	3,8	4,3	5,0	+1,28
Nishon	3,3	3,6	4,1	4,3	+1,30
Kasbi	4,0	3,7	4,4	5,5	+1,37
Ko‘kdala				3,7	
Chiroqchi	3,6	3,6	3,6	3,8	+1,05
Shahrisabz	4,0	4,2	3,8	4,4	+1,1
Yakkabog‘	4,0	4,2	4,4	4,4	+1,1

Jadval O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

Mamlakatimizda aholi o‘limi koeffitsienti 2023-yil holatiga ko‘ra 4,7% ni tashkil etayotgan bo‘lsa, viloyatda umumiy o‘lim koeffitsienti 4,6 % ni tashkil etmoqda, shu bilan birga eng yuqori ko‘rsatkich Dehqonobod tumanida 6,7% , Mirishkor 5,4% bo‘lsa , eng past koeffitsient Ko‘kdala tumani 3,7% , Chiroqchi tumanida 3,8% tashkil etmoqda. O‘zgarish indeksi eng yuqori holati ham mos ravishta Dehqonobod +1,71 va Mirishkor +1,54 tumanlarida kuzatilgan bo‘lsa, Qamashi tumanida +1,0, Shahrisabz va Yakkabog' tumanlarida +1,1 holatdagi ko‘rsatkichlarni qayd etganligini ko‘rishimiz mumkin[6].

H.E.Egamqulovning Sirdaryo viloyatida olib borgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, viloyatining ayniqsa, sanoat markazlarida onalar va go‘daklar o‘limi, ba‘zi kasallik guruhlari (xavfli o‘sma, yurak, qon-tomir, asab, ruhiy buzilishlar, nafas olish a‘zolari tizimi kasalliklari) bilan kasallanish ko‘rsatkichlari respublika darajasidan bir necha barobar yuqori. Bu esa, o‘lim holatini oshishiga olib keladi degan xulosa bergan[3].

Respublikamizda jadal va tadrijiy olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar aholi o‘lim ko‘rsatkichlarining pasayishiga, aholining gigiyenik ko‘nikmalarining shakllanishi va ayollarning ish bilan bandlik darajasi oshishi ham jarayonda ijobiy holat kuzatilishiga o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmadi.

Yuqori o‘lim holati qayd etilgan Dehqonobod tumanining maydoni viloyat tumanlari ichida eng salmoqli o‘rindaligi, shunga bog‘liq holatda malakali tibbiy xizmat bilan aholini qamrab olish imkoniyatidagi muammolar, yana har jami tuman aholi hisobiga to‘g‘ri keluvchi shifokorlar soni bir yarim ming kishini tashkil etmoqda. Yana bir omil sifatida tuman xo‘jalik faoliyatida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida aholining katta qismining bandligini keltirish mumkin.

Qashqadaryo viloyati aholisining o‘lim holatini baholash (2023-yil)

Guruh (o‘zgarish indeksi bo‘yicha)	Ma'muriy hududiy birlik nomi	O‘rtacha o‘zgarish indeksi	Ma'muriy tumanlar soni
Past +1,15 gacha	Qamashi +1,0, Chiroqchi +1,05, Shahrisabz +1,1, Yakkabog' +1,1, Kitob +1,02,	+1,05	5
O‘rta +1,15dan +1,30 gacha	Muborak +1,28, G‘uzor +1,19, Qarshi sh +1,17, Shahrisabz sh +1,28, Qarshi +1,28,	+1,24	5
Yuqori +1,30 dan baland	Dehqonobod +1,71, Koson +1,41, Mirishkor +1,54, Nishon +1,30, Kasbi +1,37	+1,46	5
	Qashqadaryo viloyati	+1,21	16

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

Jadval Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumoti asosida muallif tomidan tuzildi. (eslatma, ma'muriy birliklarning tahlil etilgan yillar oralig'ida mavjud bo'lmaganligi sababli Ko'kdala tumani haqida ma'lumotlar keltirilmadi)

Hozirgi vaqtda respublikamizning barcha hududlarida, jumladan eng markazlardan olis qishloq va ovullarda ham tibbiyot sohasiga doir zamonaviy tibbiyot muassasalari o'z ish faoliyatini olib borilmoqda. Davlat budjeti hisobidan sohani modernizatsiya qilish, malakali kadrlar tayyorlash, eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan tibbiyot muassasalarini taminlash ishlari jadal davom ettirilmoqda.

Binobarin, aholi o'limi holati - har qaysi davlatning iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan qay darajada ekanligi, aholining yashash shart-sharoitlari, tibbiy xizmat ko'rsatishning qanday darajada ekanligi, aholining mehnat sharoitlari bilan bog'liq hisoblanadi. O'lim holati va uning yillar davomida dinamikasidagi o'zgarishlar ayrim demografik holatlar, tug'ilishning umumiy ko'rsatkichi, aholi yosh-jins tarkibi, nikoh va ajrimlar soni, shu bilan birgalikda aholi kasallanish darajasi, hududning ekologik holati kabi bir qancha omillar bilan chambarchas bog'liq holatda o'zgarib boradi. Ma'lumki, yuqorida sanab o'tilgan omillardan tashqari aholining shahar yoki qishloqlarda istiqomat qilishi va milliy mentalitetga ham mutanosib ravishda o'lim ko'rsatkichlarini o'zgarib borishiga sabab bo'ladi.

So'ngi yillarda mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimidagi ijobiy o'zgarishlar va tibbiyot sohasi kadrlarining malakasi ortishi hisobiga erishilayotgan eng katta yutuqlardan biri bu o'lim salmog'ining kamayib boryotganligidir. Shu bilan birga aholining umr davomiyligi ham o'sib bormoqda.

Afsuski, tadqiqot obektimiz bo'lgan Qashqadaryo viloyati va tumanlarida aholi o'lim holati yuqoriligi saqlanib qolmoqda. Bunday holatga asosiy omil sifatida viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, demografik holati va ekologik jihatlariga bog'liq holda ma'lum darajada tafovutlar kuzatilmoqda.

O'lim holati ko'rsatkichlarini tahlil qilar ekanmiz, uning sabablarini o'rganish zarur ekanligini chetda qoldirib bo'lmasligini angladik. Shuni alohida takidlash lozimki, N.Komilovning tadqiqot ishlarida sabablarga ko'ra o'lim holatiga alohida ahamiyat berilgan. U asosan xavfli o'sma kasalliklarining avj olishi oqibat va sabablari, uning hududlardagi farqi, bunga asosan o'sha hududda joylashgan infratuzilmaning ham ta'sirini atroflicha yoritgan. Bundan tashqari yurak, qon-tomir kasalliklari va endokrin tizim kasalliklarining ham avj olishi o'limga olib kelishini tahlil qilib bergan. Shu bilan birga "Insonlarning o'rtacha umr ko'rishi ularning salomatliklariga, yashash va mehnat sharoitlariga bog'liq; kishilarning yashash joyi qanchalik tinch, tabiat bilan hamnafas bo'lsa, ularning salomatliklari uchun ham


“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

foydalidir”. [4] Viloyatda 2023-yil hisobi bo‘yicha jami o‘lim holatining sabablari quyidagicha ko‘rinishdagi diagramma orqali aniqroq tavsiflab chiqamiz.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



Yuqoridagi diagrammadan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, aholi o‘limining asosiy sabablari ichida yuqori ko‘rsatkich qon aylanish tizimi kasalliklari 59,9 foiz, keyingi o‘rinda 16,0 foiz bilan boshqa sabablar va o‘sma kasalliklari 7,7 foizni tashkil etmoqda. O‘lim sabablari ichida qon aylanish tizimi kasalliklarining yuqori darajasiga sabab sifatida butun dunyodagi tadqiqot ishlarida, atmosfera havosida PM 2.5 dispers darrachalar konsentratsiyasining yuqori darajasi, hududlardagi yoz oylaridagi mumkin bo‘lgan havo haroratining juda yuqoriligi, insonlarning turmush tarzi(noto‘g‘ri ovqatlanish, kam jismoniy faollik), kasallikning nasldan naslga o‘tishi, spirtli ichimliklar, tamaki istemoli ham juda ta‘siri yuqori omillar sanaladi [7].

Viloyatda aholi o‘lim darajasi va kasallanish darajasi yuqori ko‘rsatkichlari ma‘lum yillar davomida saqlanib qolayotganligi sababli Prezidentimizning PQ-67 sonli qarori tasdiqlangan. Ushbu qarorda Qashqadaryo viloyatida aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, kasalliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish, tibbiy xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish va ularning sifatini oshirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida 14 ta bandedan iborat aniq yo‘l xarita belgilangan. [5]

Xulosa o‘rnida aholi o‘lim ko‘rsatkichlari tahlili natijasida yuqori ko‘rsatkich bilan baholangan tumanlar aniqlandi. Ushbu tumanlar alohida chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqazo etishi va o‘lim sabablariga oydinlik kiritildi. Viloyat aholi o‘limining

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

asosiy sabablari ichida yuqori ko‘rsatkich qon aylanish tizimi kasalliklari 59,9 foiz bilan yetakchiligi, kasallikkeltirib chiqaruvchi omillar qisman tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komilova N.K., Egamqulov H.E. Iqlim o‘zgarishlari sharoitida aholi o‘limining hududiy tahlili (Sirdaryo viloyati misolida). Экономика и социум. 2023,(5-1(108)),B.150-158.
2. A.S.Soliyev,N.K.Komilova,S.L.Yanchuk,Sh.Z.Jumaxanov,F.T.Rajabov. Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya. Noshir nashriyoti ,Toshkent-2019.234-bet
3. H.E.Egamqulov “Sirdaryo viloyatining nozoekologik vaziyati va aholi salomatligini hududiy xususiyatlari (Boyovut tumani misolida)”nomli dissertatsiyasi 68-sahifa.
4. Komilova N.Q., Muxammedova N.J. Tanatogeografiyaning nazariy va amaliy masalalari (aholi o‘limining hududiy xususiyatlari). Monografiya. Navoiy-2023\
5. Qashqadaryo viloyatida aholi salomatligini muhofaza qilish hamda sog‘liqni saqlash tizimini yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-67 sonli Qarori 2024-yil 9-fevral.
6. qarshi.stat.uz ma’lumotlari
7. Qashqadaryo viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi ma’lumotlari